

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON  
TILLARI UNIVERSITETI**

**REKTORI**

**I.M. Tuxtasinov**

---

**17-iyun 2025 y.**

**XORIJUY OLIY TA'LIM TASHKILOTI BILAN HAMKORLIKDAGI  
QO'SHMA TA'LIM DASTURLARIGA O'QISHGA QABUL QILISH**

**TARTIBI**

**TOSHKENT-2025**

## **MUNDARIJA**

KIRISH.....	3
NOMZODLARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR .....	3
QABUL JARAYONINI TASHKIL ETISH TARTIBI .....	4
NOMZODLAR UCHUN KIRISH IMTIHONLARINI O‘TKAZISH .....	4
TALABALIKKA QABUL QILISH.....	6
YAKUNIY QOIDALAR.....	7

## **KIRISH**

1. Ushbu tartib O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 6-iyuldagи “O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy hamkor oliy ta’lim tashkilotlarining qo‘shma ta’lim dasturlari asosida ta’lim faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 421-son qarori va boshqa qonunosti hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (keyingi o‘rinlarda - O‘zDJTU) bilan xorijiy oliy ta’lim tashkiloti hamkorligida amalga oshirilayotgan qo‘shma ta’lim dasturlariga o‘qishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

2. Qo‘shma ta’lim dasturi (double degree) - O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va xorijiy oliy ta’lim tashkiloti o‘rtasida tuzilgan hamkorlik shartnomasiga muvofiq, ikki davlatda tan olinadigan oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat(diplom)ni olishga qaratilgan ta’lim shaklidir.

3. Tartib O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va xorijiy oliy ta’lim tashkiloti o‘rtasida imzolangan hamkorlik bitimi asosida qo‘shma ta’lim dasturlarida o‘qish istagida bo‘lgan nomzodlar, O‘zDJTU va hamkor xorijiy oliy ta’lim tashkilotlari uchun amal qiladi.

4. Ushbu tartib O‘zDJTU va xorijiy oliy ta’lim tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan bakalavriat va magistratura bosqichidagi qo‘shma ta’lim dasturlariga abituriyentlarni qabul qilish mezonlari, tartibi, hujjatlar talabi hamda saralash bosqichlarini belgilaydi.

5. Qabul jarayonini tashkil etish va qabul yuzasidan tegishli qaror qabul qilish uchun O‘zDJTU va xorijiy oliy ta’lim tashkiloti kelishgan holda Qabul komissiyasi tarkibini tasdiqlaydi.

## **NOMZODLARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR**

6. Qo‘shma ta’lim dasturiga o‘qishga qabul qilinish uchun nomzodlar quyidagi talablarga javob berishlari lozim:

- umumiy o‘rta yoki o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasasini tamomlagan bo‘lishi (bakalavriat uchun);
- xorijiy oliy ta’lim tashkiloti tomonidan belgilangan qo‘shimcha talablarga (onlayn/off-line hujjatlarni topshirish sifati, yozma topshiriq) javob berishi.
- abituriyent va ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi vasiysi bilan tuzilgan shartnomaga shartlarini to‘liq bajarish.

## **QABUL JARAYONINI TASHKIL ETISH TARTIBI**

7. Nomzodlar onlayn ro‘yxatdan o‘tadi va elektron tizimga quyidagi hujjatlarni yuklaydi:

- online ariza;
- pasport(ID ikki tomoni aniq skanerdan o‘tqazilgan bo‘lishi shart) nusxasi;
- ta’lim to‘g‘risidagi hujjat va ilova (attestat, diplom);
- til sertifikati nusxasi(mavjud bo‘lsa).

Qo‘shma ta’lim dasturlariga o‘qishga qabul qilish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

- birinchi bosqichda - O‘zDJTU va xorijiy oliy ta’lim tashkiloti o‘zaro kelishgan sanalarda kirish imtihonlari yozma ravishda o‘tkaziladi;
- ikkinchi bosqichda - O‘zDJTU buyurtmasi asosida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan kelishilgan muddatlarda qo‘shma ta’lim dasturida o‘qitish olib boriladigan chet tilidan kirish imtihoni o‘tkaziladi (til sertifikati mavjud bo‘lmagan nomzodlar uchun).

## **NOMZODLAR UCHUN KIRISH IMTIHONLARINI O‘TKAZISH TARTIBI**

### **Birinchi bosqich**

8. Birinchi bosqichda elektron ariza to‘ldirilib, abituriyentlar yozma imtihon belgilangan kunda ilovada berilgan (Illova 1) mavzular asosida qisqa yozma shaklida imtihon topshirishadi.

9. Birinchi bosqich imtihonida abituriyentlarning akademik, kognitiv va ijtimoiy ko‘nikmalari quyidagi yo‘nalishlarda ball shaklida baholanadi:

Imtihon natijalarini baholash komponentlari va ball taqsimoti:

Baholash komponenti	Tavsif	Maksimal ball
Yozma nutq ko‘nikmalarining shakllanganligi(savodxonlik, stilistika, leksika).	Yozma fikrlarning uzviyligi, mantiqiy va grammatik jihatdan to‘g‘riligi	75
Rezyumega beriladigan ball (tarjimai hol)	Rezyumeni shakllantirishdagi savodxonlik, ijtimoiy-faolligi	15

10. Yozma imtihonda abituriyent tanlangan mavzu bo‘yicha yozma ishi, fikrlarni batafsil bayon etishi, grammatik jihatdan to‘g‘ri va formal uslubda ifoda eta olish ko‘nikmalarini namoyish qilishi lozim.

Yozma imtihonlar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

Vazifani bajarish / mazmunini bayon qilish	15 ball
Jumlalardagi mantiqiy bog‘liqlik va izchillik	15 ball
Lug‘at boyligi va aniqligi	15 ball
Grammatik xilma-xillik va aniqlik	15 ball
Yozma ishning mavzu bilan uyg‘unligi	15 ball
<b>Jami</b>	<b>75 ball</b>

11. Tarjimayi holni (rezyume) – baholash. Bunda ekspertlar rezyumeda ijtimoiy faoliyatining mazmuni, batafsil tavsifi va professional taqdimotini baholaydilar. Ijtimoiy faolligini baholash mezonlari (15 ball):

<b>Mezon</b>	<b>Ball</b>
Xalqaro loyihalardagi ishtiroki	5
Fan olimpiadalarida ishtiroki	5
Ijtimoiy hayotdagi faoliyati (loyihalarda ko‘ngilli bo‘lib ishtirok etgan sertifikati, sportda erishgan yutuqlar, olimpiadalardagi o‘rin egallagan guvohnoma agar bo‘lsa va shu kabilar)	5
<b>Jami</b>	<b>15</b>

### **Ikkinchi bosqich**

12. Ikkinchi bosqichda chet tili bo‘yicha kirish imtihonlarida to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ballning kamida 30 foizini to‘plagan abituriyentlar qo‘shma ta’lim dasturi bo‘yicha o‘tkaziladigan tanlovda ishtirok etadi hamda qabul parametrlaridan kelib chiqib, o‘qishga qabul qilinadi.

13. Qo‘shma ta’lim dasturida o‘qitish olib boriladigan chet tili bo‘yicha bakalavriyatda (spetsialitetda) kamida B1 darajadagi, magistraturada kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan abituriyentlar ikkinchi bosqichda chet tilidan o‘tkaziladigan imtihondan ozod etiladi va ularga mazkur bosqich uchun maksimal ball beriladi.

14. Qo‘shma ta’lim dasturlari asosida o‘qishga qabul qilish natijalarini tasdiqlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tashkiloti tomonidan xorijiy hamkor oliy ta’lim tashkiloti bilan kelishilgan holda belgilanadi;

### **TALABALIKKA QABUL QILISH**

15. Qo‘shma ta’lim dasturiga qabulni tashki etish uchun tasdiqlangan komissiya minimal o‘tish ballari miqdorini belgilaydi. Bunda o‘tish ballari birinchi bosqich va ikkinchi bosqich natijalaridan kelib chiqib, umumiy yig‘ilgan ballar va

mavjud kvotalar asosida qabul komissiyasi a'zolarining yakdil qarori bilan tasdiqlanadi.

16. Qo'shma ta'lim dasturiga qabul natijalari yuzasidan yakuniy qaror qabul komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi. Umumiy baholash natijalari asosida o'qishga qabul qilingan talabalar ro'yxati rasman e'lon qilinadi.

17. Tanlovdan o'tgan nomzodlar shartnoma asosida o'qishga qabul qilinadi. Shartnomada o'qish muddati, to'lov miqdori, o'qish joyi va akademik mobillik shartlari ko'rsatiladi.

### **YAKUNIY QOIDALAR**

18. Ushbu tartib har o'quv yili boshida qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Bunda amaldagi qonunchilik va hamkor xorijiy oliy ta'lim tashkiloti taklifiga asosan o'zgarish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin yangilanadi.

19. Kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalar hamkor xorijiy oliy ta'lim tashkiloti bilan kelishilgandan va O'zDJTU tomonidan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

20. Qo'shma ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tashkilotlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarga xorijiy hamkor oliy ta'lim tashkiloti joylashgan davlatda tan olinadigan diplom hamda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotining davlat namunasidagi diplomi taqdim etiladi.

Ushbu tartib ishlab chiqildi va kiritildi:

<b>Xalqaro hamkorlik ishlari bo'yicha prorektor</b>		A.A. Nasirov
<b>Qo'shma ta'lim dasturlarini muvoifiqlashtirish bo'limi boshlig'i</b>		F.M. Rashidova

**1. Tillarni bilish va tushunish ko‘nikmasi**

1. Nechta tilni bilasiz?
2. Yangi tilni o’rganish sizga nima beradi?
3. Chet elliqlar bilan so’zlashganda nima his etgansiz?
4. Nega bir nechta tillarni bilish kerak?

**2. Shaxsiy rivojlanish, hamjihatlikda ishslash ko‘nikmasi**

1. Nega oliy ta’lim?
2. Jamoada hamjihatlikda ishslashga misol keltiring.
3. Yangi bilim va ko‘nikmaga nega intilish kerak?
4. Oxirgi o‘rgangan narsangiz nima?

**3. Namunali fuqarolik ko‘nikmasi**

1. Jamiyatni rivojlantirishga qanday hissa qo‘sasiz?
2. Yaxshi fuqarolik nima deb bilasiz?
3. Adolatsizlikda qanday yo‘l tutasiz?  
Muammoni qanday hal qilasiz?

**4. Tadbirkorlik ko‘nikmasi**

1. Qanday biznes ochmoqchisiz?
2. Muammodan yechim topganmisiz?
3. Pul muhimmi, g‘oyami?  
Qachon tashabbus ko‘rsatgansiz?

**5. Madaniyva ma’rifiy ko‘nikmasi**

1. Urf-odatlar nega kerak?
2. Madaniyatni hurmat qilish sizga nima beradi?
3. San’at marifatga qanday ta’sir qiladi?
4. O‘zligingizni qanday tanishtirasiz?

**6. Raqamli ko‘nikmalar**

1. Saytlardagi soxta yangiliklarni qanday aniqlaysiz?
2. Media savodxonlik nimani anglatadi?
3. Texnologiyalarning rivojlanishi nega kerak?  
Ma’lumotlaringizni qanday himoyalaysiz?

**7. Matematika, fan, texnologiya va muhandislik ko‘nikmasi**

1. Matematika sizga qachon asqotgan?
2. Ilmiy fikrlash sizga nima beradi?
3. Fan va predmetning farqi nima?
4. Muhandislar hayotda qanday ahamiyatga ega?

**8. Savodxonlik ko‘nikmasi**

1. Oxirgi o‘qigan kitobingiz qaysi?
2. Esingizda qolgan eng asosiy g‘oyani yozing
3. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
4. Matn mazmunini tushunmasangiz, qanday yo‘l tutasiz?

**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**BIRINCHI BOSQICH**  
**YOZMA IMTIHON**

**FISh:** \_\_\_\_\_

**Sana:** \_\_\_\_\_

**Tanlangan xalqaro hamkor universitet va ta'lif darajasi:**

- Moskva davlat lingvistika universiteti (Moskva) – Bakalavr
- Dalyan texnologiya universiteti (Xitoy) – Bakalavr
- Minsk davlat lingvistika universiteti (Belarus) – Bakalavr
  
- Dalyan texnologiya universiteti (Xitoy) – Magistratura
- Minsk davlat lingvistika universiteti (Belarus) – Magistratura

**Telefon raqam:** \_\_\_\_\_

1-savol

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

2-savol

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

3-savol

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

4-savol

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---

---